
Qo'shtepa tumani hokimining navbatdagi qabuli o'tkazildi

Qabulga kelgan fuqarolarning ko'pchiligi yo'llarni ta'mirlash, toza ichimlik suvi ta'minoti, uy-joy, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tadbirkorlikni rivojlantirish, kommunal sohalardagi kamchiliklarni tuzatish, ishga joylashishda ko'maklashish, huquqiy masalalar bo'yicha murojaat qildi.



Qabulda hokim fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlarini birma-bir tingladi. Ular qo'ygan muammolar bo'yicha hokim o'rinbosarlari, tumandagi xalq qabulxonasi va boshqa tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rdi. Ayrim murojaatlarda ko'rsatilgan masalalarni ijobiy hal etish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriq va ko'rsatmalar berdi.



2019-12-03 16:08:10